

Toshpulatova Guldonga Tulqin qizi

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Qodirov Farrux Ergashevich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Informatika va uni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri, i.f.f.d PhD

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA “INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI”
FANINI O'QITISHDA YUZAGA KELAYOTGAN BIR QANCHA MUAMMOLAR,
KAMCHILIKLAR VA ULARNI BARTARAF QILISH USULLARI**

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda yuzaga kelayotgan muammolar, kamchiliklar va ularni bartaraf qilish to'g'rida bo'lib bundan tashqari boshlang'ich sinflarda informatika darslarini tashkil etish, darsda qo'llanadigan interfaol metodlardan, AKT dan samarali foydalanish, shu bilan birga o'quvchilarni darsga qiziqtirish yo'llari ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalar, AKT, interfaol, metodlar, innovatsiyalar, kompyuter savodxonligi, ta'lim prinsiplari, boshlang'ich tushuncha, kompyuter texnologiyalari, planshet ,sektor, portativ.

Аннотация: В этой статье рассматриваются проблемы и недостатки, возникающие при обучении информатике и информационным технологиям в начальных классах, а также пути их устранения. Кроме того, обсуждаются организация уроков информатики в начальной школе, интерактивные методы, используемые на уроках, эффективное использование ИКТ, а также способы повышения интереса учащихся к урокам.

Ключевые слова: информационные технологии, ИКТ, интерактив, методы, инновации, компьютерная грамотность, компьютерные технологии, принципы обучения, основные понятия, планшет, сектор, портативность.

Abstract: This article discusses the issues and shortcomings in teaching computer science and information technology in primary school, as well as ways to address them. Additionally, it covers organizing computer science lessons in primary grades, interactive methods used in the classroom, effective use of ICT, and ways to engage students and spark their interest in lessons.

Key word: Information Technology, ICT, interactive, methods, innovation, computer literacy, education principles, basic concept, computer technology, tablet, sector, portability

Kirish O'zbekiston prezidenti 2023- yil 26-may kuni Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish to'g'risidagi qarorni imzoladi.¹ Bu qarorda maktablarning boshlang'ich sinflarida Informatika fanini joriy etish haqida so'z yuritiladi. Bu qaror asosida 2023- yil yangi o'quv yilidan boshlab 1-sinf o'quvchilari uchun “Informatika va axborot texnologiyalari” fani joriy etildi.

Maktabning birinchi sinfidan alifboni o'rgatilgani kabi Informatikaning boshlang'ich tushunchalarini berib borish o'quvchilarning axborot olami sirlaridan baxramand bo'lishiga dastlabgi qadam bo'lib xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni,

Adabiyotlar tahlili:

Boshlang'ich sinfda "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishda yuzaga kelayotgan muammolar, kamchiliklar va ularni bartaraf qilish usullari mavzusida xorijiy va mahalliy olimlarning adabiyotlar tahlilini quyida keltiraman: Xorijiy olimlar tadqiqotlari. Seymour Papert o'zining "Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas" kitobida kompyuter texnologiyalarining boshlang'ich ta'limda qo'llanilishi haqida fikr bildirgan. Uning asarlari asosida o'quvchilar axborot texnologiyalari orqali mustaqil va ijodiy o'rganishga imkon topadi. Muammo sifatida ko'pchilik davlatlarda ta'lim tizimi AKTni to'liq qo'llashga moslashtirilmagani ko'rsatiladi. Neil Selwynning "Education and Technology: Key Issues and Debates" kitobida texnologiya ta'limdagi o'rnini tahlil qiladi. Xususan, AKT bilan ta'lim olish uchun o'quvchilarning qobiliyatlari, texnik imkoniyatlarning yetishmasligi va raqamli tengsizlik kabi muammolar qayd etilgan. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun zamonaviy texnologik infratuzilmani yaxshilash va o'qituvchilarga maxsus o'quv kurslari tashkil qilish taklif qilinadi. Heidi Hayes Jacobs "Curriculum 21: Essential Education for a Changing World" asarida o'quv dasturlariga texnologiyalarni qo'shishdagi muammolarni yoritadi. O'quvchilar texnologiyalardan foydalanishga tez moslashsa-da, o'qituvchilarning ushbu texnologiyalarni yetarlicha bilmasligi muammo sifatida keltiriladi. U texnologiya orqali individual yondashuvni kuchaytirish va o'qituvchilarni qayta tayyorlashni taklif qiladi. Glen Finger et al. va uning hamkasblari tomonidan yozilgan "Transforming Learning with ICT: Making IT Happen" asarida o'quvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ta'minlashdagi qiyinchiliklar muhokama qilinadi. Muhim masala sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilarining AKT bilan ishlashda duch keladigan qiyinchiliklari, jumladan, texnologik vositalarning yetishmasligi keltiriladi. Ular texnik infratuzilmani takomillashtirish va o'qituvchilarning bilim darajasini oshirishni tavsiya etadi.

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida esa Toshpo'latov A.ning "Axborot texnologiyalari va boshlang'ich sinflarda uning o'qitish usullari" asarida O'zbekistonda AKT bilan bog'liq ta'lim muammolari tahlil qilingan. Uning tadqiqotlari o'qituvchilarning texnologiya bo'yicha yetarlicha bilimga ega emasligini va axborot texnologiyalari bilan bog'liq usullarni to'liq o'zlashtirmaganligini ko'rsatadi. Kamchiliklarni bartaraf etish uchun o'quv dasturlarini yangilash va o'qituvchilarni o'qitish taklif etiladi. Yo'ldoshev Sh.ning AKT fanini boshlang'ich sinflarda o'qitish bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida texnik resurslar, ya'ni kompyuter va boshqa texnologik vositalarning yetishmasligi asosiy muammo sifatida qayd etilgan. Buni hal qilish uchun davlat miqyosida AKT resurslarini maktablarga taqsimlashni ko'paytirish zarur deb ta'kidlangan. Xodjiev A. tadqiqotlari o'qituvchilarning boshlang'ich sinflarda informatika va axborot texnologiyalarini o'qitish jarayonida duch kelayotgan qiyinchiliklariga bag'ishlangan. U texnik resurslar yetishmasligi, darsliklar va o'qitish materiallarining kamligi, hamda AKTni integratsiya qilishda o'quvchilarning tayyor emasligini asosiy muammo sifatida ko'rsatgan. Bu muammolarni hal qilish uchun o'quv dasturlarni qayta ko'rib chiqish va o'quvchilarga texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ko'proq amaliy darslar berishni tavsiya etadi.

Tadqiqot metodlari: Boshlang'ich sinflarda "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishda yuzaga kelayotgan muammolar, kamchiliklar va ularni bartaraf qilish usullari bo'yicha tadqiqot o'tkazishda qo'llaniladigan tadqiqot metodlari quyida bayon etilgan Kuzatish (Observation method) Maqsad: Informatika va AKT fanlarini o'qitishda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, dars o'tish usullari, va texnologik resurslarning qo'llanilishini kuzatish. Kuzatish ob'ekti: Boshlang'ich sinf darslari jarayonida informatika fanining qanday o'tilishi, o'quvchilar va o'qituvchilarning texnologiyalardan qanday foydalanayotgani, o'quvchilarning texnologiyaga bo'lgan qiziqishlari va tayyorligi. Muammolarni aniqlash: Texnologik vositalarning yetishmovchiligi, o'quvchilarning AKT bo'yicha bilim darajasining pastligi va darsning samaradorligini tushirishga sabab bo'luvchi omillar kuzatish orqali aniqlandi. So'rovnomma (Survey method) Maqsad: O'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalarning informatika fanini boshlang'ich sinflarda o'qitish jarayonidagi

muammolar va kamchiliklar haqidagi fikrlarini yig'ish. So'rovnoma ishtirokchilari: Boshlang'ich sinf o'quvchilari, ularning ota-onalari, informatika va AKT fanlari o'qituvchilari. Muammolarni aniqlash: So'rovnoma orqali o'qituvchilarning texnik bilim darajasi, o'quvchilarning texnologiyaga bo'lgan tayyorligi, va texnik vositalar yetishmovchiligi kabi muammolar qayd etiladi.

Tahlil qilish: So'rovnoma natijalari asosida o'qitishning qaysi jihatlari kamchiliklarga sabab bo'layotgani aniqlanadi va takomillashtirish yo'llari belgilanadi. Intervyu (Interview method) Maqsad: O'qituvchilarning informatika fanini o'qitishda duch kelayotgan amaliy muammolarini chuqurroq tushunish.

Intervyu ishtirokchilari: Informatika fanlari o'qituvchilari, maktab ma'muriyati.

Muammolarni aniqlash: O'qituvchilar bilan ochiq suhbatlarda texnik vositalarning yetishmasligi, dars o'tishda duch kelinadigan qiyinchiliklar va AKT fanlari bo'yicha malaka oshirish ehtiyojlari kabi muammolar o'rganiladi. Takliflar: Intervyu natijasida o'qituvchilar tomonidan taklif etilgan yechimlar va metodik usullar yig'iladi.

Bunga sabab bugungi XXI asr fan texnika asrida barcha sohalar va kasblar raqamli format bosqichma bosqich o'tkazilib kelyapti. Yosh avlodni bunga tayyolash maqsadida yuqoridagi ishlar olib borilmoqda va bu borada turli qonun va farmonlar ishlab chiqildi. Hozigi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun " informatika va axborot texnologiyalari" dasrliklari va daftarlari ishlab chiqildi va o'quvchilarga taqdim etildi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining aksariyatini ayollar tashkil etishini hisobga olib, ularning jamiyatdagi o'rni, farzandlarimiz ta'lim va tarbiyasi yo'lidagi mashaqqatli mehnatini e'tirof etish lozim.

Ammo, Informatika fani dasturri ba'zida boshlang'ich sinf o'quvchilariga murakkablik qiladi. Texnologiyalar haqida tushunchalar, dasturlash asoslari yoki kompyuter tizimlari haqida boshida yetarlicha oson va aniq taqdim etilmaydi. Shu boisdan dastur materiallari yoshga mos ravishda soddalashtirilib, o'quvchilarga tushunarli tilda berilishi kerak. Qo'shimcha sifatida interaktiv va qiziqarli faoliyatlarni kiritish foydali bo'ladi.

Ikkinchidan, Ko'pgina boshlang'ich sinf o'qituvchilari axborot texnologiyalari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmaga ega emas. Bu dars sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunga yechim sifatida, O'qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish kurslari tashkil etish, yangi texnologiyalar bilan ishlashni o'rgatish uchun treninglar tashkil etish zarur. Shuningdek, raqamli resurslar orqali o'qituvchilarga yordam beruvchi o'quv materiallarni taqdim etish kerak.

Uchinchidan, Ko'pgina maktablarda kompyuter sinflari yetishmaydi yoki mavjud texnika eskirgan. Bu o'quvchilarning fanni amaliyot bilan bog'liq tarzda o'rganishiga to'sqinlik qiladi. Yechim, Maktablarda kompyuter sinflarini modernizatsiya qilish va yetarlicha texnika bilan ta'minlash uchun mahalliy hukumat yoki xususiy sektor yordamidan foydalanish lozim. Shuningdek, arzon planshet yoki boshqa portativ qurilmalar orqali ham darslarni tashkil qilish mumkin.

To'rtinchidan, Darsda ishlatiladigan materiallar yoki faqat darslikdan foydalanib dars o'tish o'quvchilarni zekitirib qo'yishi mumkin, bu esa ularning fanga qiziqishini pasyitiradi. Bunga yechim sifatida shuni ko'rsatish mumkinki, o'quv dasturiga o'yinlar, interaktiv mashqlar, tarqatma materiallar va multimedialarni qo'shish kerak. Bolalarning yoshiga mos va ularni qiziqtiradigan faoliyatlar o'quv jarayonini qiziqarli qiladi. Bundan tashqari har bir mavzuni amaliy mashqlar bilan mustahkamlash va amaliy mashg'ulotlar ko'proq o'tkazish kerak .

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsaK bugungi zamon talablariga javob bera oladigan, jahon bozorida raqobatbardosh yoshlarni yarbiyalash va ularga boshlang'ich ta'lim va tarbiya berish, yoshlarga samarali ta'lim bera oladigan yoshlarni tarbiyalovchi o'qituvchilarni tayyorlash, ularni zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanigan qilib tarbiyalash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Perizentining 26-maydagi PF 76-sonli qarori
2. A.X.Rajabov : Boshlang'ich sinf o'qituvshilarining “ Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari” fanini o'qitishdagi muammo va kamchiliklar .
3. Papert, S. (1993). *Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas*. Basic Books. Kompyuter texnologiyalari orqali bolalar qanday qilib ijodiy va mustaqil o'rganishga intilishlarini yoritadi.
4. Selwyn, N. (2011). *Education and Technology: Key Issues and Debates*. Continuum. Texnologiyalarning ta'lim jarayoniga ta'siri va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar tahlil qilingan.
5. Jacobs, H. H. (2010). *Curriculum 21: Essential Education for a Changing World*. ASCD. XXI asrda ta'limni qanday modernizatsiya qilish va texnologiyalarni o'quv jarayoniga qo'shish masalalari muhokama qilingan.
6. Finger, G., Russell, G., Jamieson-Proctor, R., & Russell, N. (2012). *Transforming Learning with ICT: Making IT Happen*. Pearson Australia. O'quvchilarga texnologiyalar orqali ta'lim berishning muammolari va imkoniyatlari tahlil etiladi.
7. Voogt, J., Knezek, G. (Eds.) (2008). *International Handbook of Information Technology in Primary and Secondary Education*. Springer. AKT fanini boshlang'ich va o'rta ta'limda o'qitishning xalqaro amaliyotlari va qiyinchiliklari tahlil qilingan.
8. Mahalliy adabiyotlar: Toshpo'latov, A. (2018). *Axborot texnologiyalari va boshlang'ich sinflarda uning o'qitish usullari*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Boshlang'ich sinflarda AKT fanlarini o'qitishning milliy metodikasi va qiyinchiliklari haqida.
9. Yo'ldoshev, Sh. (2020). *Boshlang'ich ta'limda informatika va axborot texnologiyalari*. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti. Informatika va AKT fanlarini boshlang'ich sinfda o'qitish bo'yicha milliy muammolar va taklif etilgan yechimlar haqida.
10. Xodjiev, A. (2021). *Axborot texnologiyalari fanini boshlang'ich sinflarda o'qitish metodikasi*. Toshkent: Xalq ta'limi vazirligi nashriyoti. Boshlang'ich ta'limda AKT fanlarini o'qitish metodikasi, dars jarayonidagi muammolar va ularni bartaraf qilish yo'llari.
11. Karimov, M. (2019). *Raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim sifatini oshirish usullari*. Toshkent: Innovatsiya ta'limi markazi.